

**"QISSASI RABG'UZIY" ASARIDA PAYG'AMBARLAR TASVIRINI BERISHDA
ADIBNING TASAVVUR KUCHI VA MAHORATI**

Qahramonova Maftuna O'tkirovna,
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti talabasi
qahramonovamaftuna06@gmail.com
Imomqulova Gulchehra Norboboyevna,
ilmiy rahbar, O'zbek tili va adabiyoti kafedrası assistenti

Annotatsiya. Ushbu maqoladi "Qissasi Rabg'uziy" asarining qisqacha bayoni hamda ayrim hikoyatlarning tahlili va tavsifi bayoni berib o'tilgan. Shuningdek, uning badiiy qiymati haqida fikr yuritildi. Asardagi ba'zi qissalar yuzasidan munosabat bildirilgan.

Kalit so'zlar. Hamd va na't, adabiy qiymat, sunnat amallar, mo'min majburiyatlari.

**"QISSASI RABG'UZIY" ESERINDE PEYGAMBERLERIN TASVIRINDE
YAZARIN HAYAL GÜCÜ VE SANATSAL USTALIĞI**

Kahramanova Maftuna Utkirovna,
Özbekistan-Finlandiya Pedagoji enstitüsü öğrencisi
Imomkulova Gulchehra Norboboyevna,
bilimsel danışman, Özbek dili ve edebiyatı bölümü asistanı

Özet. Bu makalede "Qissasi Rabg'uziy" eserinin kısa özeti ile birlikte bazı hikayelerin analizi ve tanıtımı yapılmıştır. Ayrıca eserin edebi değeri üzerine görüş bildirilmiş ve bazı kıssalar hakkında kişisel yorumlara yer verilmiştir.

Anahtar kelimeler. Hamd ve na't, edebi değer, sünnet uygulamaları, müminin sorumlulukları.

**ОБРАЗ ПРОРОКОВ В ПРОИЗВЕДЕНИИ "КИСАС-И РАБГУЗИ"
СКВОЗЬ ПРИЗМУ ВОООБРАЖЕНИЯ И МАСТЕРСТВА АВТОРА**

Кахрамонова Мафтуна Уткировна,
студентка Узбекско-Финского педагогического института
Имомкулова Гулчехра Норбобоевна,
научный руководитель, ассистент кафедры узбекского языка и литературы

Аннотация. В статье представлено краткое содержание произведения "Кисаси Рабгузи", а также анализ и характеристика отдельных рассказов. Кроме того, рассматривается художественная ценность произведения и выражено авторское мнение по поводу некоторых повествований.

Ключевые слова. Хамд и на't, литературная ценность, суннатские обряды, обязанности верующего.

**THE WRITER'S IMAGINATION AND SKILL IN PORTRAYING
THE PROPHETS IN "THE STORY OF RABGUZ"**

Kahramanova Maftuna Utkirovna,
Student of the Uzbek-Finnish pedagogical institute
Imomkulova Gulchehra Norboboevna,
scientific supervisor, assistant of the department of Uzbek language and literature

Annotation. *This article provides a brief overview of "Qissasi Rabghuzi" and presents the analysis and description of selected stories. Additionally, it explores the literary value of the work and shares personal reflections on some of the narratives.*

Keywords. *Hamd and na't, literary value, Sunnah practices, obligations of a believer.*

Xorazmlik mashhur shoir va yozuvchi mutafakkir Nosiruddin Rabg'uziyning eng yirik asarlaridan biri "Qisasi Rabg'uziy" hisoblanib bu asar turkiy adabiyotning nodir va betakror namunasi. Islom dinining tayanchi bo'lgan Qur'oni karimdan ilhomlangan holda hamda ushbu kitobga asoslangan holatda yozilgan "Qissasi Rabg'uziy" asarida har bir mavzuga alohida to'xtalib o'tilib, har qaysi ishda o'zgacha hikmat borligi uqtirilgan. Asar Allohga hamd bilan boshlanadi, so'ngra na't qismi keltirib o'tiladi. Asarning o'ziga xosligi voqealarning sodda va ravon tilda berilganligi hamda qissada keltirilgan barcha ma'lumotlarning ishonchli ekanligidan iborat. Asarda 72 hikoyat mavjud bo'lib, ular 33 payg'ambar va muhim tarixiy shaxslar haqida hikoya qiladi. Qissadagi hikoyatlarda payg'ambarlar ularning hayoti, ko'rgan kechirganlari, mashaqqatli yo'llarni, turli sinovlarni qanday yengib o'tgani to'g'risida so'z boradi. Jumladan, Shis alayhissalom qissasiga to'xtaladigan bo'lsak, Shis payg'ambar umri davomida bo'zchilik bilan shug'ullanadi. Shis butun hayoti mobaynida kishilarni Haq taolaga ibodat qilishga undashiga qaramasdan, vafotidan so'ng insonlar butga topinadigan bo'lib qoladilar.

Qolaversa, qissada toki Qiyomatga qadar Jannatdan muqim o'rin topgan Idris alayhissalom rivoyati ham keltirib o'tiladi. Idris payg'ambar o'zining ustomonligi hamda aql-zakovati tufayli Jabroil alayhissalomni ham hayratda qoldiradi hamda ushbu ehtiromga sazovor bo'ladi. Shuningdek, "Qissasi Rabg'uziy" asarida kofir bilan musulmon hukmdorlar haqida ham aytib o'tiladi. Xususan kofir podshohlar: Namrud alayhila'na va Buxtnasr ismli shaxslar bo'lsa musulmon sultonlar Sulaymon alayhissalom hamda Iskandar Zulqarnayndir. Lekin qissada kofir bo'lsa-da, Namrud podshoh Ibrohimga zulm qilishni istamaydi, nomaqbul ishlarni o'ziga ep bilmaydi va asarning ayni shu o'rnida ushbu oqilona aytilgan hikmatli so'zga ko'zimiz tushadi: "Adl qilgan kofir bilan mulk boqiy qolar, ammo zulm qilgan mo'min bilan mulk boqiy qolmas". Biroq ko'p o'tmay Shayton Namrudni yo'ldan uradi va shu tariqa u tangri bilan bellashmoqqa jazm etadi bu bilan u ayovsiz o'lim topadi. Qissani boshqa tomondan olib qarasak va o'zgacha urg'u bersak, hamda ushbu asar qunt qilib o'qib chiqilsa, musulmonlar majburiyati hisoblangan amallarning ko'pchiligi payg'ambar-lardan sunnat bo'lib qolganligini guvohi bo'lishimiz mumkin. Masalan Haj amalini o'tayotgan hojilarga shaytonga tosh otmoqlik marosimi Ibrohim alayhissalomdan qolgan bo'lib, payg'ambar o'g'li Ismoil alayhissalomni qurbonlik qilishga ketayotgan paytlarida shayton ularni yo'ldan urmoqchi bo'lganda ikki payg'ambar tomonidan toshlar yog'dirilgan. Qolaversa, Shis alayhissalomdan mo'minlarga marhumlarni suv birla poklamoqlik shu tariqa kafanga o'rab so'ngra janoza namozi o'qimoqlik sunnat amal bo'lib qolgan.

Asardagi eng ko'p tilga olingan payg'ambar bu Yusuf alayhissalomdir. U payg'ambarimiz Muhammad sallalohu alayhi vasallamgacha bo'lgan payg'ambarlar orasida o'zining go'zal husni shuningdek, solih fe'l atvor egasi ekanligi bilan hurmat topgan. Yusuf Robbimizdan kelgan har bir sinovni yuksak sabr bilan yengib o'tadi, hattoki o'z nafsini ham yenga oladi. U Alloh amriga hech qachon qarshi chiqmaydi va shu tariqa saodatga erishadi. Asarda ma'rifiy-didaktik hikoyatlar ham mavjud bo'lib ulardan biri Luqmon alayhissalom voqeasidir.

Xulosa qilib aytganda, "Qisasi Rabg'uziy" asari bugungi kunda ham o'zining adabiy qiymatini yo'qotmagan holda keng jamoatchilik e'tiboridan chetda qolmay kelmoqda. Qissa ayniqsa XIII-XIV asrlar eski o'zbek adabiy tilini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqillik sharofati bilan ushbu qissani o'rganish jarayoni jadallashdi. Ushbu asarga oid izlanishlar davom etmoqda. Rabg'uziyning payg'ambarlar haqidagi qissalari ham badiiylilik jihatdan ham til nuqtai nazardan katta yozma yodgorlikdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rabg'uziy, N. Qissasi Rabg'uziy. 1-kitob.T."Yozuvchi" 1990-yil, 234-b.
2. Usmonov, M. (2020). Rabg'uziyning "Qissasi Rabg'uziy" asarida hikoyatlar poetikasi. CyberLeninka. <https://cyberleninka.ru/article/n/rabg-uziyning-qissasi-rabg-uziy-asarida-hikoyatlar-poetikasi/viewer>
3. Xolmirzayev, B. (2021). "Qissasi ar-Rabg'uziy" asarining o'ziga xosligi va janrlar tarkibi. CyberLeninka. <https://cyberleninka.ru/article/n/qissasi-ar-rabg-uziy-asarining-o-ziga-xosligi-va-janrlar-tarkibi/viewer>